# 7 ta oliy ta’lim muassasasi talabalari o‘rtasidagi musobaqa

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019 yil 26 apreldagi “2019 yilda oliy ta’lim muassasalari talabalari respublika olimpiadasini tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 314 – sonli buyrug‘iga asosan joriy yilning 17 – 18 may kunlari Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida “Qishloq xo‘jalik mashinalari” fanidan Respublika fan olimpiadasining ikkinchi bosqichi o‘tkazildi.

Ushbu olimpiadada  mamlakatimizning 7 ta oliy ta’lim muassasalaridan talaba – yoshlar ishtirok etishdi.

Shulardan institutimizning “Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti 4 - bosqich 404 guruh talabasi Turdibekov Akram Raxmatilla o‘g‘li faxrli birinchi o‘rinni qo‘Iga kiritdi.

Turdibekov Akram Raxmatilla o‘g‘li va uning rahbari Isakov Alijon Abdumitolipovich institut rektorining faxriy yorlig‘i hamda sovg‘alar bilan taqdirlandi.

“Qishloq xujaligini mexanizatsiyalash” fakulteti Ma’naviy  – marifiy  ishlar  buyicha  dekan  o‘rinbosari I.Raximov  axboroti.

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniezov.